



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Boboyorov Shuhratjon Suvonqulovich**

Navoiy davlat universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Integrativ yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etib, turli fanlar, metodlar va yondashuvlarni yagona pedagogik jarayon doirasida birlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarni muvozanatli rivojlantirish orqali ularning innovatsion kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada, integrativ yondashuv asosida talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Integrativ yondashuv, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari, kasbiy kompetentlik, kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, kasbiy tayyorgarlik.

## **МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**Бобоёров Шухратжон Сувонкулович**

Навоийский государственный университет, доцент (PhD)

### **Аннотация**

Интегративный подход приобрел важное значение в современной системе образования и предполагает интеграцию различных дисциплин, методов и подходов в рамках единого педагогического процесса. Этот подход направлен на формирование инновационной компетенции у учащихся посредством сбалансированного развития теоретических знаний, практических навыков и личностных качеств. В данной статье представлена информация о методологии формирования и развития инновационной компетенции учащихся на основе интегративного подхода.

**Ключевые слова:** Интегративный подход, будущие учителя истории, профессиональная компетентность, методология формирования и развития компетенций, педагогические технологии, образовательный процесс, профессиональная подготовка.

## **METHODOLOGY FOR FORMING AND DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE HISTORY TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH**

**Boboyorov Shuhratjon Suvonqulovich**

Navoi State University, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

The integrative approach has gained importance in the modern education system and involves the integration of various disciplines, methods and approaches within a single pedagogical process. This approach is aimed at forming innovative competence in students through the balanced development of theoretical knowledge, practical skills and personal qualities. This article provides information on the methodology for the formation and development of

innovative competence of students based on the integrative approach.

**Keywords:** Integrative approach, future history teachers, professional competence, methodology for the formation and development of competence, pedagogical technologies, educational process, professional training.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo‘llash, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘quv fanlarini o‘qitish ham o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. O‘quv adabiyotlarini yaratish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim mazmunini belgilashda, o‘quv jarayonini tashkil etishda hamda o‘qitishning samarali metodlarini tanlashda chuqur didaktik tahlil o‘tkazish zarur. Bugungi kunga kelib, o‘qitish tizimlarining har bir jabhasida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas. Kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma’nodagi ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarning keng jalb etilishi tobora oldingi o‘ringa chiqib bormoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammo ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan.

Avvalo, integrativ yondashuvning mohiyati fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda yaxlit kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan izohlanadi. Tadqiqotlarda bu yondashuv ta’lim jarayonini tizimli va maqsadli tashkil etishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, adabiyotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasi o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyati sifatida yoritilgan. Integrativ yondashuv esa ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ta’lim jarayonida refleksivlik, tizimlilik va faoliyatga yo‘naltirilganlikni ta’minlaydi.

Ilmiy manbalarda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta’lim, interfaol metodlar, loyihaviy o‘qitish va axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ham alohida ta’kidlanadi. Bu usullar integrativ yondashuv bilan uyg‘unlashganda, talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy qobiliyati va ijodiy faoliyati rivojlanadi.

Ta’limdagi integratsiya bir xil va turli xil tarkibiy qismlarning (maqsadlar, bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar) o‘zaro kirib borishi va o‘zaro ta’sirini, ilgari ajratilgan ko‘plab bir xil va turli xil tarkibiy qismlardan (maqsadlar, mazmun, usullar, vositalar, shakllar, til, ta’lim, mavzular, texnikalar, g‘oyalar va boshqalar) yaxlitlikni shakllantirish jarayonini nazarda tutadi. V. S. Bezrukova ta’kidlashicha, “integratsiya predmet va hodisalarning nazariya va amaliyotda o‘zaro bog‘lanishi va o‘zaro ta’siri, ularning asl tabiiy yaxlitligini tiklash shakllaridan biridir. Shu bilan birga, integratsiya bir vaqtning o‘zida obyektlarning o‘zaro bog‘liqligi prinsipi, jarayoni va natijasi sifatida ishlaydi, bu esa ushbu konsepsiyaning ko‘p funksiyaliligini ko‘rsatadi” [1; 29–31-b.].

Tadqiqotlarda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat ko‘plab kasbiy topshiriqlarni yechishga tayyor bo‘lishi, balki integrativ tashkiliy-boshqaruv faoliyatini bajarishga ham layoqatli bo‘lishi lozimligi keltirib o‘tilgan. Jumladan:

- ta’lim oluvchilar jamoasi faoliyatini tashkil etish;
- ta’lim oluvchilarni boshqarish usullarini qo‘llay olish;
- boshqaruv faoliyatini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishning o‘ziga xos tartibini egallash;
- ta’lim oluvchilar xulqiga qo‘yiladigan hamda hayot xavfsizligi talablariga rioya qilish va ta’lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish [10].

Shu jihatdan integratsiyaning pedagogik mohiyati integrativ pedagogik faoliyatni amalga

oshirish sharoitida ko'p qirrali inson yaxlitligini rivojlantirish, tiklash va shakllantirish jarayoni va natijasi sifatida qaraladi. E. V. Yakovlev va N. O. Yakovlevlar "pedagogik integratsiyani maqsadlar, tamoyillar, mazmun, tashkil etish shakllari birligini ifodalashning eng yuqori shakli, ta'lim jarayonining turli tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi asosida kengaytirilgan pedagogik birliklarni yaratish" deb hisoblaydi [11; 108-b.].

Respublikamizda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, o'qitish jarayoniga elektron va masofaviy ta'limni joriy qilish bo'yicha U. Sh. Begimqulov, N. I. Taylaqov [2], R. X. Djurayev [5], integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini E. Ismoilov [6], o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolarini esa B. Sh. Xasanova [9; 110-b.] tadqiq qilgan. B. Sh. Xasanova "o'quvchilarda integrativ yondashuv asosida kompetensiyalarni shakllantirish tizimida ta'lim mazmuni samaradorligi, o'qitish shakllari va metodlaridan foydalanib pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni"ni alohida belgilaydi. Integrativ yondashuv bosqichlari quyidagilardan iborat: introyeksiya — o'quvchi individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi sanaladi [9; 65-b.].

Xususan, tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv tarixiy bilimlarni boshqa ijtimoiy fanlar (geografiya, madaniyatshunoslik, falsafa) bilan bog'lash orqali o'quvchilarda yaxlit tarixiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa kasbiy kompetentlikning mazmuniy va faoliyatli jihatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyalari.** Ta'lim kontentlaridan mohirona foydalanish talabalarga o'z innovatsion kompetentligini rivojlantirishda zaruriy materiallarni to'plash bilan birgalikda, ularning kasbiy muhitda raqobatbardoshligini oshiradi, internet va jahon ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar bilan ishlashda talabaning mediasavodxonlik darajasini hamda individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalay olish malakasini belgilaydi.

Individual rivojlanish dasturi bo'lajak o'qituvchilarni norasmiy yoki informal shakldagi harakatlar dasturidir. Bu talabaning mutaxassis bo'lib shakllanishidagi rejaları va ehtiyoji asosida bevosita innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning individual yo'nalishi, ijodiy amalga oshirishning shaxsiy usulidir. Bo'lajak o'qituvchilarni auditoriya va auditoriyadan tashqarida amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zamonaviy metodlarni tanlashda ularning mezonlarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Mezonlardan biri metodlarning didaktik qoidalarga mos kelishidir. Keyingi mezon esa metodlar mazmunining talabalarni tarbiyalash, ta'lim berish va o'stirish jarayonidagi muhim ahamiyatidir. Quyidagi jadvalda metodlarni tanlash uchun yordam beradigan ta'lim metodlarining o'zaro taqqoslanishi ko'rsatilgan.

**Tahlil va natijalari.** Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi ta'lim jarayonida ko'p tomonlama yondashuvni talab etadi. Bu jarayon o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlashni, balki ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Mazkur metodika o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan. Unda integrativ yondashuvning ahamiyati o'quvchilar bilan ishlashda turli soha va fanlarni uyg'unlashtirish, shuningdek, mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirish orqali ifodalanadi. Shuningdek, bu metodika ta'lim berish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv orqali bo'lajak tarix ta'limi o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy kasbiy o'sishini ta'minlaydi, balki tarix ta'limi sifati va samaradorligini oshirish uchun muhim omil sifatida qaraladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bezrukova V. S. Pedagogik nazariya va amaliyotda integratsion jarayonlar. — Yekaterinburg, 1994. — 152 b.

2. Begimqulov U. Sh., Taylakov N. I. Ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo'nalishlari // Uzluksiz ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Samarqand, 2008. — 27–28-iyun.
3. PSTGU xabarnomasi. IV seriya: Pedagogika. Psixologiya. — 2006. — 3-son. — B. 107–122.
4. Danilyuk A. Ya. Ta'limda integratsiyaning metamorfazalari va istiqbollari // Pedagogika. — 1998. — 2-son. — B. 8.
5. Juraev R. X., Mahmudov A. X. Magistr shaxs modeli loyihalashda tizimli yondashuv // Fan–Sport ilmiy jurnali. — Toshkent, 2010. — 4-son. — B. 12–16.
6. Ismoilov E. O. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2023.
7. Verbitskiy A. A., Borisova N. V. Ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar (o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun). — Moskva: VNMTsPTO, 1990. — 20 b.
8. Nazarova O. L. Kasbiy-pedagogik kollejda ta'lim jarayoni sifatini boshqarish: monografiya. — Chelyabinsk, 2003. — 316 b.
9. Xasanova Sh. B. Biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan samarali foydalanish omillari. — Toshkent: ITA-PRESS, 2016. — 110 b.